



**MARIYA MONTESSORI METODIKASINING BOLALAR HAYOTIDAGI
AHAMIYATI**

Achilov Obid Muzrobovich

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Cho'ponqulova Sitora Bozorovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Har bir bolaga erkin harakatlanish huquqi berilishi, ular o'zining ijodkorlik va muammoni hal qilish qobiliyatidan foydalana olishlari kerak. O'qituvchilar rahbarlik qilishadi, biroq hech qanday nazorat va majburlovsiz bolani qo'llab-quvvatlaydilar. Mariya Montesori metodlari pedagoglar uchun ajoyib qo'llanma bo'lsa, bolalar uchun rivojlantiruvchi muhit bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *Rivojlantiruvchi muhit, fundamental tamoillar, fikr g'oya, tadqiqot, oltin qoidalar.*

Mariya Montessori kim o'zi?

Montessori 1870 yilda Italiyaning Kyaravalle deb ataluvchi kommunasida tug'iladi. Uning oilasi zamonasining olim va mutafakkirlari bilan tez-tez ko'rishib turadigan ziyorolar edi. Bu esa Mariyaga o'zining tengdosh qizlariga qaraganda anchayin ustunliklarni berardi.

Mariyani onasi doim qo'llab-quvvatlaydi va bu uning boshlang'ich mакtabdan so'ng texnika maktabiga o'qishga kirishida, keyinroq, asosan, erkaklar ishlaydigan tibbiyot sohasini o'rganishga qaror qilganida aks etadi.

1896 yilda o'qishni tugatganidan ko'p o'tmay Montessori Rim universiteti qoshidagi psixiatriya klinikasida ko'ngilli yordamchi bo'lib ishlay boshlaydi. U yerda Montessori o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar bilan ishlaydi. Montessori ishlaydigan xona deyarli bo'sh, faqat ba'zi mebellar bor edi xolos. Bir kuni u bolalarning yerga tushgan non ushoqlarini ishtiyoq bilan o'ynayotganini payqab qoladi. Keyin uning xayoliga ba'zi aqliy zaifliklarning kelib chiqishiga kambag'allik ham sabab bo'lishi mumkin, to'g'ri yaratilgan o'quv materiallari bilan esa yosh qalblarni tarbiyalash mumkin degan fikr keladi.

Shundan so'ng Montessori bolalikning nozik davrida bolani optimal darajada rag'batlantirishga qaratilgan yangi metodni ishlab chiqdi.

Bu usulning asosiy prinsipi barcha materiallar bolaga mos bo'lishi va uning barcha sezgilarini jalg qilishi kerak degan qoidaga asoslangandi. Har bir bolaga erkin harakatlanish huquqi berilishi, ular o'zining ijodkorlik va muammoni hal qilish qobiliyatidan foydalana olishlari kerak. O'qituvchilar rahbarlik qilishadi, biroq hech qanday nazorat va majburlovsiz bolani qo'llab-quvvatlaydilar.

Montessori 1907 yilda Italiyada ilk bolalar uyini ochadi. U taniqli insonlar bilan aloqalar o'rnatadi, jumladan, Mahatma Gandhi bilan ham. 1922 yilda Italiyada fashistlar hukmronligi boshlangach ular dastlab Montessorining ishini qabul qilishadi. Biroq bolalar ta'limida so'z erkinligiga urg'u berilayotganini sezib qolib Montessoriga qarshi chiqqa boshlashadi. Montessorining qadriyatlariga ko'ra, bola va ayollar huquqlari muhim sanalgan. Fashistlar Montessori maktabi o'quv kontentini o'zgartirishga harakat qila



boshlagach, u 1934 yilda Italiyani tark etadi. Va vataniga 1947 yilda qaytib keladi, to o'limigacha, 1952 yilda 81 yoshida vafot etgunga qadar o'zining uslublari haqida yozish va uni rivojlantirishga umrini sarflaydi.

Mas'uliyat bolalarning o'zida

Bugun Montessori maktablarining turli xillari faoliyat olib boryapti, biroq ularning hammasi ham Montessori metodi asosida faoliyat yurituvchi Opera Montessori tashkiloti tomonidan tan olinmagan. Montessori maktablarida aniq fundamental tamoyillar saqlanib qolgan. Bu g'oyalardan biri – o'qituvchining yumshoqko'ngil bo'lishi, imkon qadar kattalar aralashuvisz bolalarga mashg'ulotlarni o'zları bajarishlariga qo'yib berishdan iborat.

"Farzandlarimiz o'zlarini boshqarishni o'rgana oladilar", deydi Sitsiliyadagi Montessori maktabi bosh o'qituvchisi Miriam Ferro.

Bu maktabdagi musiqa va matematika kabi fanlar boshqa umumta'lim maktablariniki bilan bir xil, biroq bu yerda Montessorining qarashlarini ifoda etadigan amaliy hayotga oid fanlar ham bor. Ularning maqsadi –bolalarni mustaqillikka o'rgatish. Maktabda sinfdoshlarga ichimlik tarqatish kabi real vazifalar ham mavjud. Xavfsizlik uchun suvni o'qituvchi qaynatib beradi, biroq qolgan ishni bolalarning o'zi qiladi. Maktabdagi nonushta va tushlikda ham bolalarning o'zları dasturxon yozishadi.

Bunday mashg'ulotlarda bolalar nafaqat mustaqil bo'lishni balki birikib ishlashni ham o'rganadi. Har bir mashg'ulot 3 soat davom etadi, bu bolalar nima qilayotganlarini tushunib olishi uchun yetarli bo'ladi. O'quv materiallari esa barcha sezgilar ishlashi uchun mo'ljallangan: masalan, harflar va raqamlar qumqog'ozdan yasaladi. Uni ushslash orqali bola barmoq sezgisini ishlatadi.

Bahsli taraflar

Lekin Montessori maktablarining muvaffaqiyatini, uning qanchalik ijobiy va salbiy taraflari borligini ilmiy asoslash qiyin bo'lmoqda. Sababi ta'limda sinovlarni bir xillikda qat'iy amalgalashish qiyin. Masalan, Montessori maktablarining aksari pulli va ularga o'ziga to'q ota-onalarning bolalari boradi. Bu ota-onalar uyda ham bolalari bilan ishlashi va ularning muvaffaqiyatida uydagagi e'tiborning ham ahamiyati katta bo'lishi mumkin.

AQShdagi Montessori maktablaridan birida unga qabul qilingan 5 yoshli bolalar tasodifiy usul bilan tanlab olinib ularning rivojlanishi o'rganilganda bolalarning savodxonlik, hisob-kitob, ijro va ijtimoiy qobiliyatları oddiy maktab bolalariga qaraganda yaxshiroq ekani aniqlangan. 12 yoshda esa o'quvchilarining hikoya qilish qobiliyati yaxshi rivojlangan. Lekin bu tadqiqot ham Montessori ta'limi zo'r deyish uchun yetarli emas, buning uchun yana boshqa tadqiqotlar kerak.

Yana bir tadqiqotda Montessori maktabi o'quvchilarida ijodkorlik kuchli ekani aniqlangan.

Bolalarning kichik yoshdan turli harakatlarni mustaqil bajarishga qo'yib berish keyinroq ularni muammolarga yechim topish, xatolardan xulosa chiqarish, moslashuvchan fikrlashga o'rgatadi. Bir so'z bilan aytganda, Montessori ta'limining jozibasi o'ziga xos – bolani mustaqillikka o'rgatishdan iborat.

Montessori maktabining oltin qoidalari:

- Bola faol bo'lishi muhim. Uning ulg'ayishida kattalar ikkinchi o'rinda tursin, rahbar emas, ko'makchi bo'lsin;



- Erkin harakat va bola tanlovi;
- Katta bolalar o‘zidan kichiklarga bilganini o‘rgatsin. Ayni shu odat boshqalar haqida g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- Bola qarorni o‘zi chiqarsin;
- Mashg‘ulotlar maxsus hozirlangan muhitda o‘tilishi shart;
- Kattalarning burchi — bolani qiziqtira bilish. Keyin bolaning o‘zi rivojlanib ketaveradi;
- Bola ichidagi iste’dodni to‘liq ko‘rsatishi uchun unga erkin fikrlash, harakat va tuyg‘u imkonini berish kerak, xolos;
- Bolani tabiatdan bezdirish emas, do‘sit qilish kifoya;
- Uni tanqid qilmang, qandaydir taqiq, cheklov bilan bo‘g‘mang;
- Xato qilishga har bir bolaning haqqi bor. Uni to‘g‘rilashni ham o‘ziga qo‘yib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” Toshkent. 2018 yil
2. Yu.I.Fausek “Montessori bolalar bog`chasi” Toshkent. 2008 yil
3. “Montessori metodikasidan namunalar” metodik tavsiya Samarqand. 2004y
4. www.lex.uz